



ISTIQLOL DAVRI MUQIMIYSHUNOSLIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI

Namunaxon Tursunova,
Qo'qon universiteti
Filologiya kafedrası dotsenti v.b

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil Jurnal soni: 17 Maqola raqami: 40 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1389 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Mazkur maqolada istiqolol davri muqimiyshunosligining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda yetakchi tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Mustaqillik yillarida Muqimiy ijodini o'rganishda metodologik yondashuvlarning yangilanishi, sovet mafkurası ta'siridan xoli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida talqin qilish tamoyillari asoslab beriladi. Xususan, adib merosiga tarixiylik va xolislik mezonlari asosida yondashish, badiiy-estetik tafakkur, ijtimoiy-ma'naviy mazmun hamda muallif shaxsiyatining ijod bilan uzviy bog'liqligini ochib berish masalalari yoritiladi. Shuningdek, istiqolol davri muqimiyshunosligida matnshunoslik, manbashunoslik va qiyosiy-adabiy tahlilning o'rnı va ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Maqola natijalari Muqimiy ijodini zamonaviy adabiyotshunoslik talablari asosida tadqiq etishda muhim ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.
Muqimiy, adabiyotshunoslik, adabiy meros, tamoyil, g'azal, yangicha me'zon, tarixiylik, jadid, ma'rifatchilik, adabiy muhit, obraz, badiiy-estetik yondashuv, ijtimoiy-ma'naviy mazmun, muallif shaxsiyati, matnshunoslik, manbashunoslik.	

Kirish. Jahon adabiyotining tadqiq etilishi zarur bo'lgan mavzularidan biri, shubhasiz, mumtoz adabiy merosni tarixiy obyektivlik va adabiy jarayonning rivojlanish tendensiyasining ajralmas qismi sifatida yangicha ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish masalasidir. Har bir ijodkorning milliy adabiyot tarixidagi o'rnini va badiiy tafakkur xazinasiga qo'shgan hissasini, ijodiy o'ziga xosligini aniqlash dolzarb vazifalar qatorida turibdi.

Dunyo adabiyotshunosligida keyingi yillarda mumtoz adabiy merosga munosabat o'zgardi. Badiiyat durdonalarining yaratuvchisi bo'lmish muallif mahoratining turli qirralarini tadqiq etish jahon miqyosida keng tus oldi. Chunki har qanday asarning badiiy barkamollik sirlari bevosita uning muallifining iste'dodi, malakasi va mahorati bilan bog'liq. Binobarin, muayyan asar badiiyatini muallif mahoratidan ayri holda tadqiq etib bo'lmaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham keyingi yillarda asar badiiyati, uslubiy xususiyatlari, muallif mahorati, badiiy san'atlarni qo'llash masalalari tadqiqotlarning yetakchi yo'nalishiga aylandi. Natijada ko'plab mumtoz so'z san'atkorlari va zamonaviy shoir, yozuvchilarning asarlari badiiy xususiyatlari va muallif mahorati nuqtai nazaridan o'rganilgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Lekin qilinadigan ishlar ko'lami hali keng. Zero, "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz"¹ [1], deya ta'kidlangani ham bejiz emas. O'zbek adabiyotining yorqin iste'dodli vakillaridan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodiy merosi sho'ro tuzumi yillarida o'zining xolis bahosini olmadi. To'laqonli tadqiq etilmaganiga yarasha g'oyaviy tahrir ham qilindi. Natijada asarlarining mohiyatiga mutlaqo teskari talqinlar maydonga keldi. Shoir she'riyatini xolis o'rganish, mahoratining asosiy qirralarini, ijod namunalarining xalq ichida mashhurlik sirlarini va asrlarni bo'ylab kelish sabablarini, uning so'z qo'llash mahorati, g'azaliyotining uslubiy xususiyatlari, xalq og'zaki ijodiga yaqinligi omili asosida tadqiq qilish ayni jihatdan mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi va muhimligini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Muqimiyshunoslikdagi dastlabki urinishlar shoir asarlarining nashri va ommalashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu borada shubhasiz, N.Ostroumovning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak. U 1907-yilda 1912-yillar orasida "Devoni Muqimiy"ni va bir qator

bayozlarni toshbosma usulida nashr ettirdi.² Rus olimi M.Gavrilov esa "Туркестанские ведомости" gazetasining 1912-yil 12-avgust sonida "Sart shoiri Muqimiy" nomi ostida taqriz maqolasini e'lon qildi.

O'tgan asrning 30-yillaridan shoir hayoti va ijodini o'rganish jadal sur'atlarda boshlandi. Birgina G'afur G'ulom tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muqimiyshunoslikda bir bob bo'ldi. Jumladan, G'afur G'ulomning o'n jildlik "Asarlar" to'plamining sakkizinchi jildida adabiy-tanqidiy maqolalar bo'lib, Muqimiy maktublari, "Muqimiy", "Demokrat shoir", Hamid Olimjon tahriri ostida G'afur G'ulom so'zboshisi bilan "Muqimiy" to'plami, "Tallanma asarlar" G'G'ulom nashrga tayyorlagan.

XX asrning 60-yillarida G'ulom Karimov muqimiyshunoslikda samarali faoliyat ko'rsatdi. Olim shoir asarlarini qayta-qayta nashr ettirdi, jumladan, 1960-yillarda "Muqimiy. Asarlar to'plami"³ ikki jildlik, 1974-yillarda "Muqimiy. Asarlar"⁴, "O'zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti"⁵ mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. "Muqimiy hayoti va ijodi" mavzusida monografiya⁶ nashr ettirdi. Shu bilan birgalikda oliy ta'lim adabiyot dasturlariga Muqimiy hayoti va ijodini o'rganishni ham kiritdi.

Asqarali Charxiy ham Muqimiy adabiy merosini tiklashda, uni avaylab saqlashda, e'lon qilinmagan bir qancha g'azallarini xalqqa taqdim qilishda alohida jonbozlik ko'rsatgan.

Muqimiyning hayoti, faoliyati, ijodi, asarlarining janriy tarkibi, matniy tadqiqi, shoir mansub adabiy muhit bo'yicha adabiyotshunoslikda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu faoliyatga O. Sharafiddinov, Hamid Olimjon, N.Xotamov, A.Abdug'afurov, P.Qayumovlarning xizmatlari juda katta. Mazkur tadqiqotlarda davr talabi, mafkura taqozosiga ko'ra Muqimiy asarlaridan asosan ijtimoiy mazmun qidirildi, shoirning o'z zamonini fosh qiluvchi satirik va yumoristik asarlari tadqiqiga zo'r berildi. Bu she'rlarning ortida turgan, ularning el ichida shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan muallifning mahorati masalalari tadqiqot doirasidan chetda qolib ketaverdi.

Mustaqillik yillarida muqimiyshunoslikda ham bir qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Shoir she'rlaridan iborat to'plamlar, to'la asarlar majmuasi e'lon qilindi. Matnshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqotlar amalga oshirildi, shuningdek, ilmiy maqolalar nashr etildi. Yangi davr muqimiyshunosligida matnshunos olim Qo'ldosh Pardayevning izlanishlari tahsinga sazovor. Olimning izlanishlari natijasida Muqimiyning 13 g'azal, 3 muxammas, jami 194 misra she'ri aniqlanib, birinchi marotaba ilmiy muomalaga olib kiritildi, sho'ro

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кўнига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <http://uza.uz/posts/3452>

² Девони Муқимий – Тошкент: 1907. ЎзФАШИ, инв. №236.

³ Каримов Ғ. Муҳаммад Аминхўжа Муқимий (Сўзбоши) // Муқимий. Асарлар тўплами. Икки жиллик. 1-жилд (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Каримов). – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1960.

⁴ Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат, 1974

⁵ Каримов Ғ. Ўзбек демократ шоири Муқимий ва унинг даври адабиёти. Докторлик дисс. – Тошкент, 1962

⁶ Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

mafkurasi nuqtai nazaridan shoir asarlari to'plamidan tushirib qoldirilgan misra, bayt va bandlardan jami 285 misra qayta tiklandi. Bu izlanishlar natijasi Muqimiy adabiy merosi haqidagi tasavvurlarni boyitadi.

Metadologiya. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy adabiy merosiga adabiyotshunoslikda qaror topgan bir qator tahlil metodlaridan foydalanilgan holda qayta o'rganildi. Adabiyotshunoslar G'ulom Karimov, Abdulatif Turdaliyev, Qo'ldosh Pardayevlar tomonidan chop etilgan Muqimiyning ijod namunalari qiyosiy o'rganilib, notog'ri o'qilgan, g'oyaviy tahrir qilingan misra va baytlar aniqlandi. Asl matnlar qayta tiklanib, kontekstual, immanent, tarixiy-madaniy, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanib, shoirning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi qiyofasiga xolis baho berilib, istiqloq davri muqimiyshunosligining yetakchi tamoyillari aniqlandi.

Natijalar. Istiqloq birinchi navbatda so'z erkinligini kafolatlagani ma'lum. Natijada istiqloq davri adabiyotshunosligida sho'ro davrida aytish mumkin bo'lmagan ilmiy haqiqatlar yuzaga chiqa boshladi. Badiiy ijod, shu qatori adabiyotshunoslik ilmiy mafkura tazyiqidan butunlay xalos bo'ldi. Bu hol, o'z navbatida, Muqimiy ijodini o'rganishga oid tadqiqotlarga ham ijobiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Istiqloq davri muqimiyshunosligida muhim tamoyillardan: Muqimiy asarlari qo'lyozmalari va toshbosmalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qayta tadqiq etish; Muqimiyning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi o'rnini mustaqillik mafkurasiga va adabiyotshunoslikda qaror topgan yangicha me'zonlar asosida qayta baholash.

Mazkur muammolar yechimiga istiqloq sharofati bilan jiddiy kirishildi. Albatta, matnshunoslik sohasining rivoji adabiyotimiz tarixidagi ko'plab chalkashliklar, matn bilan bog'liq xatolarni bartaraf etishga yordam beradi. Istiqloq yillarida Muqimiy asarlarining matniy tadqiqi bo'yicha V.Rahmonov, A.Madaminov, R.Tojiboyev, A.Turdaliyev, O.Jo'raboyev, Q.Pardayev singari matnshunos olimlar izlanishlar olib bordilar. Natijada shoir asarlarining qator nashrlari dunyo yuzini ko'rdi. To'g'ri, barcha nashrlar ham kamchiliklardan holi bo'lmas-da, shoir asarlari nisbatan to'g'ri va to'liq shaklda xalqimizga yetib bordi.

Mumtoz adabiyot vakillari ijod namunalari hajmini birdaniga to'liq aniqlash imkonini yo'q. Chunki, kutubxonalar, muzeylar, adabiyot ixlosmandlari yoki ijodkorning avlodlari shaxsiy kutubxonalari saqlanayotgan devon va bayozlarning barchasi tadqiqotchilarga ma'lum bo'lmaydi. Matnshunos olim Q.Pardayev Muqimiy ijodiy merosi uchraydigan manbalarni quyidagicha tasniflaydi: "a) Muqimiy dastxat bayozlari, majmualar va alohida varaqlardagi shoir dastxatlari; b) shoir zamondoshlari tomonidan tuzilgan qo'lyozma bayozlar va majmualar; v) toshbosma bayozlar; g) arxiv materiallari; d) vaqtli matbuot materiallari va to'plamlar; j) Po'latjon Qayumov asarlari". Ko'rsatilgan tasnif doirasida qo'qonlik bir qator olimlar barakali mehnat qildilar. Jumladan, zukko matnshunos olim Ahmadjon Madaminov istiqloq yillarida (1997 yil) birinchilardan bo'lib Muqimiy she'rlaridan tarkib topgan "Yangi bayoz" ni e'lon qildi.

Muhokama. Adabiyotshunos Abdulatif Turdaliyev Muqimiyning 3 ta dastxatini aniqladi. Olim "Bog' aro" (2010) nomi bilan shoir to'plamini nashr ettirdi. Mazkur to'plamga 152 ta g'azal (1 ta forscha g'azal), 14 ta murabba, 31 ta muxammas shulardan 15 tasi Muqimiyning mustaqil muxammaslari va Jomiy, Navoiy (2ta) Fuzuliy (2 ta), Amiriy (2 ta), G'oziy, Umidiy, Nodim, Nomi, Muhayyir, Furqat, Kamiy, Azimiy, Almaiy g'azallariga taxmislar, 4 ta ta'rix (2 tasi forscha), 1 ta ruboiy, 8ta fard (2 tasi forscha), hajviyotlaridan 4 ta masnaviy, 1ta muxammas, 29 ta g'azal, 3ta masnaviy va 1 ta muxammas shaklida yozilgan she'riy maktublar, "Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Shohimordonga" (19 band), "Qo'qondan Konibodomga" (11 band), "Qo'qondan Isfara" (21 band), "Isfara sayohatidan" (yangi topilgan 10 band) qismlari, izohlar va lug'atlar o'rin olgan.

Yana bir matnshunos olim O.Jo'raboyev ilmiy izlanishlari orasida ham Muqimiy asarlari manbalari, matniy tadqiqi bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar mavjud. Olim Muqimiyning "Cho'ntak bayoz"i ni o'rganib, bayozda 20 ta she'r bo'lib, 19 tasi shoir dastxati bilan ko'chirilgani, 16 tasi o'z she'rlari ekanligi haqida ma'lumot beradi. Muqimiyning to'plamlarda uchramagan "Bu muborak sayrdin, ey sho'x, ruxsoring

kerak, Xalq maqsudi tomosho, menga diydoring kerak" matla'li bir g'azalni aniqlaydi g'azal matnini ilmiy jamoatchilikka ma'lum qiladi. Shuningdek, O.Jo'raboyev Qo'qon adabiyot muzeyi fondida alohida varaqlarda saqlanayotgan (10 dona she'r) she'rlarni ham aniqlaydi.

Muqimiy asarlari manbalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qayta tadqiq etishda taniqli matnshunos olim V.Rahmon ham bir qator izlanishlarni amalga oshirgan. Xususan, olimning 2022-yilda nashr etilgan "Mumtoz so'z bahsi" kitobida "Muhammad Aminxo'ja Muqimiy" sarlavhasi ostida "O'zi bilmay tog' tiklagan olim yoki harakatdagi tog'", "Itmoq" va "etmoq" muammasi, "Zo'r zan" zo'r xotin, "Ko'sov "yetti"tami yo kattami?", "Shoshma shosharlikmi yoki..", "Shoyad" nima degani?", "Kabki..dag'i", "Xoki bo'ying"mi yoki "xoki bo'yingmi?" kabi bir qator turkum maqolalar borki, ularning barchasi turli yillarda chop etilgan Muqimiy asarlari matnidagi xato va nuqsonlarga qaratilgan.⁷ Olim Muqimiy asarlarining dastlabki nashrlari haqida fikr yuritib, shoirning 1951-yilda Abdulla Olimjon tomonidan tayyorlangan nashriga Sobir Abdullaning "Mavloni Muqimiy" dramasidan 4 ta she'rni kiritib yuborganini aniqlaydi. Mazkur dramadan bir she'r 2013-yilgi nashrga ham kiritilganini tanqid qiladi. Darhaqiqat, xalqimiz orasida mashhur bo'lib ketgan "Kelur oxir seni ham yo'qlagudek bir zamon yaxshi..." bayti maqta' bo'lgan g'azal to'la asarlar to'plami chop etulgunga qadar Muqimiyga nisbat berib kelinar edi. Aslida mazkur g'azal ham Sobir Abdulla qalamiga mansub.

Muqimiyshunoslik maktabining asoschisi, adabiyotshunos G'ulom Karimov izdoshlari maktab o'quvchilari saviyasiga mo'ljallangan Muqimiy asarlarini jamlab "Saylanma" (2009) chop ettirdi. Ushbu to'plamda 44 ta g'azallar, 4 ta murabba'lar, 7 ta muxammaslar, 3 ta masnaviy, "Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Shohimordonga" (19 band), "Qo'qondan Farg'onaga" (11 band), "Qo'qondan Isfara" (21 band), "Isfara sayohatidan" (yangi topilgan 10 band) qismlari jamlangan.

Taniqli adabiyotshunos Ergash Ochilov Muqimiyning xalqimiz orasida qo'shiqqa aylanib ketgan mashhur g'azallari, murabba'lar, muxammaslarini to'plab, "Ko'nglim sandadur" (2009 yil) "Ey chehrasi tobonim" (2013) va "Intizor" (2021) nomi ostida nashr ettirdi. "Ko'nglum sandadur" to'plamiga 164 ta g'azallar, 14 ta murabba'lar 11 ta muxammaslar kiritilgan. "Ey chehrasi tobonim" to'plamida esa Muqimiy va Furqatning eng mashhur qo'shiqqa aylangan asarlari jamlangan. Xususan, Muqimiyning 65 ta g'azallari, 15 ta murabba'lar, 5 ta muxammaslari kuy nomlari bilan berilgan. Keyingi to'plam "Intizor" nomi ostida chop etilgan bo'lib, mazkur to'plamga E.Ochilov va Z.Qobilovlarning "O'zbek xalqining mo'tabar shoiri" so'zbohis, 72 ta g'azal, 17 ta murabba, 12 ta muxammaslar keltirilgan.

Matnshunos Q.Pardayev hozirga qadar Muqimiy asarlarini jami 12 marta nashr etilgan deb belgilaydi. Ta'kidlash kerakki, shoir asarlarini matnshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish natijasida keyingi yillarda ham 3 ta to'plam dunyo yuzini ko'rdi. Birinchisi Q.Pardayev yangi aniqlagan va matni qayta tiklangan she'rlardan iborat "Biz bilmagan Muqimiy"⁸ to'plamidir. Mazkur to'plamda Muqimiyning Q.Pardayev tomonidan aniqlanib, ilk marotaba ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilingan 13 ta g'azallari, 3 ta muxammaslari, A.Turdaliyev, A.Shokirov, Sh.Yusupov, O.Jo'raboyevlar tomonidan aniqlanib, vaqtli matbuotlarda e'lon qilingan 19 ta g'azallari, 8ta muxammaslari, matni qayta tiklangan 24 ta g'azallar, 1 ta'rix (Andijon zilzilasi haqidagi), 1 ta masnaviy, 4 ta muxammas, "Tanobchilar" (37 bayt), "Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Farg'onaga" (15 band), "Qo'qondan Shohimordonga" (30 band), "Qo'qondan Isfara" (21 band), "Isfara sayohatidan" (yangi topilgan 11 band) qismlari, izohlar va lug'atlar o'rin olgan. Shuningdek olimning "Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi shoir adabiy merosini matnshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishda muhim qadamlardan bo'ldi.

Muqimiy ijodiy merosi haqida batafsil ma'lumot beruvchi yana bir muhim manba 2021-yilda A.Turdaliyev tomonidan nashrga tayyorlangan "To'la asarlar to'plami"⁹ hisoblanadi. Ushbu to'plamdagi g'azallar devon tartibida joylashtirilgan. 221 ta g'azallar, 20 ta murabba'lar, 66 ta muxammaslar shulardan 21 tasi ta'bi xud muxammaslar qolganlari Jomiy (1 ta), Navoiy (8ta) Fuzuliy (4 ta), Amiriy

⁷ Рахмонов В. Мумтоз сўз баҳси. Тошкент: Адабиёт, 2022. 488-501-б.

⁸ Пардаев Қ. Биз билмаган Муқимий. (Янги аниқланган ва матни қайта тикланган асарлар.Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Пардаев Қ). – Тошкент: Мухаррир, 2019

⁹ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А). –Тошкент. Иқтисодиёт, 2021.

(9 ta), G'oziy (1ta), Umidiy (1 ta), Nodim (2 ta), Nomi (2 ta), Muntazir (1 ta), Visoliy (1 ta), Xilvatiy (1 ta), Muhayyir (1 ta), Furqat (7 ta), Zavqiy (1 ta), Kamiy (1 ta), Azimiy (1 ta), Almaiy (2 ta), Ozariy (1 ta), Saqqo (1 ta) g'azallariga taxmislar, 4 ta ta'rix (2 tasi forscha), 1 ta ruboiy, 8ta fard (2 tasi forscha), hajviyotlaridan 4 ta masnaviy, 14 ta muxammas, 41 ta g'azal, 8ta masnaviy va 1 ta muxammas shaklida yozilgan she'riy maktublar, 20 ta o'zbekcha, 2ta forscha nasriy maktublar, "Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Shohimordonga" (30 band), "Qo'qondan Konibodomga" (15 band), "Qo'qondan Isfaraga" (21 band), "Isfara sayohatidan" (yangi topilgan 10 band) qismlari, izohlar va lug'atlar o'rin olgan.

Uchinchi manba adabiyotshunos Z.Qobilova nashrga tayyorlagan "Turkiy adabiyot durdonalari" turkumidagi "Muqimiy. Furqat. Hamza"¹⁰ saylanma asarlari to'plamidir. Mazkur to'plamda Muqimiyning 23 ta g'azallari, 9 ta murabba'lari, Jomiy (1 ta), Navoiy (4ta) Fuzuliy (4 ta), Amiriy (9 ta), Ozariy (1 ta forscha), Nodim, (1 ta), Muhayyir (1 ta) Furqat (2 ta), Kamiy, Azimiy, Almaiy g'azallariga taxmislar, 4 ta ta'bi xud muxammaslar, 1 ta masnaviy ("Qor xat"), 4 ta ta'rix (2 tasi forscha), 1 ta ruboiy, 1ta tuyuq, 8ta fard (2 tasi forscha), hajviyotlaridan "Tanobchilar" masnaviyi (33 bayt), 3ta muxammas, 4 ta g'azal, 1 ta muxammas shaklida yozilgan she'riy maktublar, 2 ta nasriy maktublar, "Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Shohimordonga" (30 band), "Qo'qondan Konibodomga" (15 band), "Qo'qondan Isfaraga" (21 band), "Isfara sayohatidan" (yangi topilgan 11 band) qismlari adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilgan.

Istiqlol davri adabiyotshunosligida Muqimiyning dunyoqarashi, ijtimoiy voqelikka munosabati, ijodkor sifatidagi o'rnini mustaqillik mafkurasini va adabiyotshunoslikda qaror topgan yangicha me'zonlar asosida qayta baholash zarurati ham tug'ildi. Chunki sho'ro davrida adabiyot sinfiyligi va partiyaviyligi nuqtai nazaridan shoir she'rlari "ommabop" holiga keltirilib, aslyatdan uzoqlashtirilgan. Birinchi navbatda Muqimiyning diniy tasavvufiy va ijtimoiy siyosiy mavzulardagi she'rlari g'oyaviy tahrir qilingan. Q.Pardayev ayni shu masalaga matnshunoslik nuqtai nazaridan yondashadi.

Sho'rolar davrida Muqimiyning turli janrlardagi "Darig'o mulkimiz", "Hajvi Bekturboy", "Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamona", "Voqeayi ko'r Ashurboy hoji", "Veksil", "Dar mazammati qurbaqa", "Hajvi xalifayi Mingtepa" sarlavhali hajviy asarlari tahrir qilinib, davr mafkurasiga moslab talqin qilinganini qayd etgan. Q.Pardayev asl matnini tiklagan.

Xususan, Muqimiyning "Darig'okim, ajoyib turfa bir oxir zamon bo'ldi, lki qo'l to yoqoda yurmasang, ishlar yomon bo'ldi" bayti bilan boshlanuvchi "Dar mazammati zamona" sarlavhali g'azali 1958, 1960, 1974-yillardagi nashrlarida 7 bayt qisqartirilib berilganligini, bu holat shoirning chor mustamlakasiga nisbatan tanqidiy qarashlarini yashirin qolishiga olib kelganligini ta'kidlaydi va g'azalning to'liq matni Muqimiyning 1325 raqamli dastxat bayozida (120 a sahifa) berilganligini ta'kidlab, tushirib qoldirilgan baytlarni ma'lum qiladi. G'azalning joriy nashrlarga kiritilmagan baytlariga diqqat qarataylik:

*To'lib cherkas, qizilbosh, armanilar shahrimiz ichra,
Musulmonlar tahipo, yaxshilar ko'zdin nihon bo'ldi.*

*Hamiyat aylab Ahmadjon turib tujjor ahlidin,
Shijoatdin tanida har sarimo'yi sinon bo'ldi.*

*Chidolmay g'ayratidin yurtini xayriyatini istab,
Olib ahli saroyin to'g'ri hokimg'a ravon bo'ldi.*¹¹

Tushirib qoldirilgan baytlarda g'ayridinlar mustamlakasi dastidan musulmonlar oyoq osti bo'lgani, savdogarlar bosh ko'targani, ularning vakili sifatida Ahmadjon ismli tujjor bu holga chidolmay yurt xayriyatini o'ylab, hokimga borgani ya'ni mavjud ijtimoiy ahvol ro'y rost ko'rsatilgan. Xalqning tobora din-u diyonatdan yiroqlashib borayotgani, axloq va tarbiya masalasi og'irlashib, "ishlar yomon"lashib, millat ma'naviy inqirozga yuz tutgani aks etgan.

Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodiy merosining umrboqiyiligini ta'minlab kelayotgan bosh omil islom ma'rifati va

tasavvuf axloqi ekani ayni haqiqatdir. Shoirning "yo Rab", "boramiz", "bor", "qaydadur", "gul", "yig'lasam", "ko'rmay" radifli, "Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg'onada", "To'bi demakda qomating, ey sho'x muddao" deb boshlanuvchi g'azallari mazkur fikrlarning isbotidir.

*Hidoyat qilmasa tavfiqi fazling, g'arqi isyonman,
Ibodatlarda nuqson ko'p, namozimda riyo, yo Rab.
Hayotim mazraiga ma'siyatlar donasin sochdim,
Agarchi tongla lutf et, hosilim jurmu xato, yo Rab.
Harimi qurbig'a mendek gadoni yetmaki mushkul,
Anikim dargohida bo'lsa sultonlar gado, yo Rab.*¹²

"Yo rab" radifli ushbu g'azalni shoirning yaratganga munajot sifatida qabul qilmoq kerak. Chunki unda "g'arqi isyon", "ibodatlarida nuqson", "namozida riyo" bo'lgan, hayoti davomida hayot marzasiga gunoh donalarini sochgan bandaning Alloh taologa yozg'irishlari, O'zidan hidoyat, mahshar kunida lutf etishini o'tinib so'rashi aks etgan.

Xulosa. Istiqlol davri muqimiyshunosligi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodini o'rganishda mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda adib merosi sovet mafkurasini ta'siridan xoli holda, milliy va tarixiy haqiqat mezonlari asosida qayta talqin qilindi. Natijada Muqimiy faqat ijtimoiy tengsizlikni fosh etgan hajvchi shoir sifatida emas, balki XIX asr oxiri Turkiston jamiyatidagi ma'naviy tanazzulni chuqur anglagan, milliy ong va tafakkur uyg'onishiga xizmat qilgan yirik ijodkor sifatida e'tirof etildi. Istiqlol davri tadqiqotlarida Muqimiy ijodidagi ma'rifatparvarlik, insonparvarlik va adolat g'oyalari milliy uyg'onish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ochib berildi. Shoirning hajviy va lirik asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy tanqid endilikda sinfiy kurash mahsul sifatida emas, balki jamiyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan milliy-axloqiy pozitsiya sifatida baholanmoqda. Bu yondashuv Muqimiyning ijodkor shaxsi va badiiy dunyosini erkin, xolis va mukammal anglash imkonini berdi. Shuningdek, istiqol davri muqimiyshunosligida badiiy-estetik tahlilning ustuvorligi ta'minlanib, shoir asarlarining janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, xalqona til va satiraning estetik vazifasi chuqur o'rganildi. Muqimiy ijodining Qo'qon adabiy muhiti doirasida tahlil qilinishi esa uni Furqat, Zavqiy singari zamondosh ijodkorlar bilan bog'liq holda baholash, adabiy jarayonning uzviyligini ko'rsatish imkonini yaratdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Istiqlol davri muqimiyshunosligi quyidagi tamoyillar bilan ajralib turadi:

1. Tarixiy haqiqatni tiklash;
2. Milliy uyg'onish g'oyalari ochib berish;
3. Shaxs va ijodni erkin talqin qilish;
4. Badiiy-estetik yondashuv;
5. Qo'qon adabiy muhiti bilan bog'liq holda o'rganish;
6. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ustuvor qo'yish.

Istiqlol davriga qadar Muqimiy ijodi ko'pincha sinfiylik va sovet mafkurasini mezonida baholangan. Istiqloldan so'ng esa uning ijodi: tarixiy voqelik, XIX asr oxiri Turkiston ijtimoiy hayoti, mustamlakachilik sharoiti bilan uzviy bog'liq holda qayta talqin qilindi. Istiqlol davrida Muqimiy jadid, ma'rifatparvar, milliy ongni uyg'otuvchi ijodkor sifatida e'tirof etildi. Shoir asarlarida: ilm-ma'rifatga chaqiriq, johillikni qoralash, adolat va insonparvarlik g'oyalari ustuvor o'rin egallaydi. Sovet davrida Muqimiy faqat "mazlum xalq kuychisi" yoki "demokrat shoir" sifatida bironqama talqin qilingan. Istiqlol davrida esa uning shaxsiy kechinmalari, ruhiy iztiroblari, diniy-falsafiy qarashlari alohida o'rganila boshlandi. Istiqlol davri muqimiyshunosligi Muqimiy asarlarini faqat g'oya emas, balki badiiylik, obrazlilik, janr xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Bu borada A.Turdiyev, E.Ochilov, Z.Qobilova, N.Tursunovalarning ilmiy izlanishlari taqsimga sazovordir.

Umuman olganda, istiqol davri muqimiyshunosligi Muqimiy merosini milliy ma'naviyat, tarixiy xotira va badiiy tafakkur manbai sifatida yuksak baholab, uning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rnini va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa Muqimiy ijodini bugungi avlod uchun ham dolzarb va ibratli ma'naviy meros sifatida anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кўнига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // <http://uza.uz/posts/3452>.

2. Девони Муқимий – Тошкент: 1907. ЎзФАШИ, инв. №236.
3. Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.

¹⁰ Turkiy adabiyot durdonalari 100 jildlik. 11-jild. Muqimiy. Furqat. Hamza. (nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Z.Qobilova) –Toshkent: O'zbekiston, 2022. 9-270-b

¹¹ Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А.) –Тошкент. Иктисодиёт, 2021.262-б

¹² Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А.) –Тошкент. Иктисодиёт, 2021.208-б

4. Ғулом Ғ. Асарлар, 10 жилдлик, 8-жилд (Адабий-танқидий мақолалар, очерклар, портретлар). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
5. Ғулом Ғ. Муқимий ва Мухйи Мухаммад Аминхўжа Муқимий. Талланма асарлар (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Ғулом). Уйғун таҳрири остида. –Тошкент: ЎзФАН, 1942.
6. Каримов Ғ. Мухаммад Аминхўжа Муқимий (Сўзбоши) // Муқимий. Асарлар тўплами. Икки жилдлик, 1-жилд (Нашрга тайёрловчи: Ғ.Каримов). –Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1960.
7. Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1974
8. Каримов Ғ. Ўзбек демократ шоири Муқимий ва унинг даври адабиёти. Докторлик дисс. – Тошкент, 1962.
9. Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.
10. Чархий. Девон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972.
11. Раҳмонов В. Мумтоз сўз баҳси. Тошкент: Адабиёт, 2022
12. Пардаев Қ. Биз билмаган Муқимий. (Янги аниқланган ва матни қайта тикланган асарлар.Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Пардаев Қ). – Тошкент: Мухаррир, 2019.
13. Муқимий. Тўла асарлар тўплами. (Нашрга тайёрловчи: Турдалиев А). –Тошкент. Иқтисодиёт, 2021.
14. Turkiy adabiyot durdonalari 100 jildlik. 11-jild. Muqimiy. Furqat. Hamza. (nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Z.Qobilova) –Toshkent: O'zbekiston, 2022.
15. [QO 'QON ADABIY MUHITI IJODKORLARINING O 'ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDAGI O 'RNI](#). ZB Qobilova, DAQ Abdullayeva. World of Philology 2 (3), 25-29
16. [MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY G'AZALLARINING KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI](#) T Namunaxon. Научный Импульс 3 (36), 79-83
17. [MUMTOZ ADABIYOTDA BADIY OBRAZ VA OBRAZILIK](#) Z Kobilova, N Tursunova. University Research Base, 112-120